



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar  [®] digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

 OpenAIRE

 Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**SHAXS TARBIIYASIDA XALQ PEDAGOGIKASI VA AXLOQIY ESTETIK
QADRIYATLARNING O‘RNI**

Yusupova Ranoxon Tolibjonovna

Andijon davlat texnika instituti

“Tillar va Gumanitar fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari falsafa doktori (PhD),

E-mail: yusupovar99@gmail.com

To‘raboyev Xamidul Toxa Ilhomjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti “Kommunal infratuzilmani tashkil etish va
boshqarish” yo‘nalishi 1-kurs K-64-25-guruh talabasi

Annotasiya. Ushbu maqola yoshlar tarbiyasida xalq pedagogikasi va axloqiy qadriyatlarning o‘rni va roli masalasiga bag‘ishlangan. Bu jamiyat hayotidagi ijtimoiy fundamental ahamiyatga loyiq eskirmagan masala bo‘lib har zamon, jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq masaladir. Chunki, jamiyat etikasi –oila, oila davomchi farzanddir. Farzandning shaxs sifatida kamolga erishuvi albatta tarbiyaga bog‘liq bu aksiomadir.

Kalit so‘zlar: insoniylik, axloqiy ong, kasbiy axloq, pedagogik ta‘moyil, shaxs, estetik did, ma‘naviyat, nafosat.

Xalqimizda bola aziz undan axloq-odobi aziz degan hikmat bor. Insonlar bir-biriga eng yuksak qadriyat sifatida ezgulik tilaydi. Ezgulik- bu avvalo insoniylik, tinchlik, sog‘lik, boqiy umr va albatta farovonlik. Insondagi eng oliy sifatlar, mazmun-mohiyati uning axloqiga tayanadi. Vatanga, ota-onaga muhabbat, kasbu koriga mehnatga muhabbat va nihoyat sevgi-muxabbat kabi yuksak qadriyatlar ham axloqga borib tayanadi. Miloddan avvalgi buyuk ajdodimiz Avesto ta‘limotiga “Ezgu fikr”, “Ezgu so‘z” va “Ezgu amal” haqidagi g‘oya ham axloqiy sifatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotar edi.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da, Prezident Shavkat Mirziyoyev: “...ezgulik va insonparvarlik ruhida yashash, bu qadriyatlarni himoya qilish xalqimiz mentaliteti va ma‘naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi” – deb bejiz ta‘kidlamagan.

Tarbiya — rivojlangan mamlakatlarda hatto taraqqiy etmagan, qabilaviy yashab kelayotgan elatlarda ham mavjuddir. Lekin ularning har birining yosh avlodga berayotgan tarbiyasi o‘ziga xos tarzda kechadi, ya‘ni o‘sha xalq, elat yoki qabila o‘zi erishgan qadriyat va urf-odatlariga aylangan insoniylik tamoyillari asosida amalga oshadi.

O‘zbek xalq pedagogikasi bugun paydo bo‘lib qolgan taiim-tarbiya jarayoni emas. Bu xalqning yosh avlod taiim- tarbiyasi uzoq vaqtlar davomida tajribalar asosida shakllanib kelgan. Xalq pedagogikasida namoyon bo‘lib turgan estetik didlilik — o‘quvchi hayotining qariyb har bir qadamida zarur bo‘luvchi katta ilm, maiifat hisoblanadi.

Ilm dargohlarida o'qish jarayonida o'quvchilarga qator talablar qo'yiladi. Mazkur talablar xalq estetikasi, did-nafosat me'yorlari asosida yaratilgan qoidalar bo'lib, siz unga amal qilishingiz o'quv dargohi uchun emas, balki eng avval sizning o'zingiz uchun foydalidir.

Misol uchun, o'quv qo'llanmalarni pokiza va but saqlash, yozuv daftarlaringizni ortiqcha chiziq va yozuvlarsiz, belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda yuritish - estetik did bilan bog'liqdir. Ilm dargohida o'quvchilar uchun me'yor tariqasida belgilangan o'quv kiyimida ham estetika mavjud. Shuni yaxshi bilinglci, ilm dargohida qabul qilingan va sizdan amal qilish so'ralayotgan barcha tartib-qoidalar yuksak estetik did, estetik me'yor darajasidir. Undan malollanish hech qachon sizda estetik didning o'sib, kuchayib ketganiga dalolat qilmaydi, balki tasavvur, tushunchangiz, saviyangiz bilan bog'liq holda shakllangan sizning estetik didingiz hali estetik umum me'yor darajasida emasligiga, siz estetikaning nozik qirralarini hali kashf qilib ulgurmaganingizdan dalolatdir xolos.

Misol tariqasida o'quvchi yozuv daftaringiz muqova varagidagi ism-sharif yoziladigan joyiga belgilangan tartibda ism-sharifini yozib qo'yishlik va boshqa keraksiz so'z va yozuvlarni daftarga yozishdan o'zini tortish uning yuksak didliligiga ishora qilib turuvchi muhim belgilardan biridir. Shuningdek, insho, bayon, ma'ruzalarni yozib borishda varaqning yuqori va yon qismlarida ma'lum masofani qat'iy saqlagan holda yozib borishlik, tinish belgilariga amal qilishga intilishlik ham estetik didlilik belgisidir. Yoki o'zini oddiy tutishga intilishlik ham yuksak didlilikni ko'rsatib turuvchi alomatlardan. O'quv kitoblarini kir qilmasdan, keraksiz belgi va yozuvlarni yozmasdan toza tutishlik ham nozik didlilikdan dalolat.

Mana shu kabi estetikaning me'yorlariga amal qilishdan malollangan o'quvchi o'ziga qanday estetik didli inson sifatida baho berishi mumkin?!

Sizning estetik didingiz uy faoliyatingizda ham namoyon bo'lib turadi. Misol uchun, polizga tushib, yer yumshatish- da, ko'chat ekishda, unga suv quyishda, mehnat asboblardan foydalanishda, dasturxon atrofida nonushta qilishda, dars tayyorlashda, o'z kiyimlaringizni yuvib dazmollashda — sizning estetik didingiz yaqqol ko'rinib turadiki, unga qarab kuzatuvchi sizning insoniylik me'yoringizni belgilaydi. Bilimingiz yoshingizga nisbatan yoki o'z tengdoshlaringizga nisbatan yuqori bo'lgan holda, polizda ishlab, mehnat asboblarni poliz chekkasiga tashlab ketaversangiz, dasturxon atrofida o'tirib tamaddi qilsangiz-u, so'ng o'z oldingizdagi non ushoqlarini, o'z piyolangiz va qoshigingizni yigishtirib qo'ymasangiz, dars tayyorlab bo'lgach, kitob-daftaringizni papkangizga yoki javoningizga (yo tokchaga) qayta joylab qo'ymasangiz, shundoq stol ustida betartib qolib ketaversa, o'z o'quv kiyimingizni chala-chulpa dazmol qilib kiyib ketaversangiz, oyoq kiyimingizni ko'chadan keliboq tozalab qo'ymasangiz, qanday qilib o'zingizni estetik didli odam deb sanashingiz mumkin bo'ladi?!



Bugun o'zbek xalqi o'z milliy madaniyati rivojlangan, ma'naviyati kuchli, estetik didi kamol topgan xalqdir. Siz o'qiydigan, siz ishlaydigan har qanday dargohdagi tartib-qoidalar sizning xalqingizning yuksak estetik didi, nafosati me'yorlari asosida belgilangandir. Ularni butun mohiyati bilan tushunib yetgan holda ularga amal qilishlik sizning estetik didingiz shu xalq estetik didi me'yorlari darajasiga ko'tarilganligiga dalolat qiladi. Bugun milliy madaniyatli, ma'naviyatli o'zbek oilasidagi farzand millat qoni va shoni unda davom etishini ongli ravishda tushungan holda ota-bobolari, avlod-ajdodlari an'analarini muqaddas bilib milliy urf-odatlariga amal qilmoqda, qadriyatlarini e'zozlamoqda, ularni o'zligida mujassam etishga intilmoqda.

Siz televideniye orqali tomosha qilayotgan, radio orqali tinglayotgan, gazeta-jurnallarda o'qiyotgan ma'naviyat, ma'rifat, nafosat haqidagi bilimlar, eng avvalo, sizning dunyoqarashingiz o'sishi, did-nafosatingiz kuchayishi, oxir- oqibat insoniyligingiz ziyoda bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh., "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T., 2021-y
2. Avesto, T., 2005-y.
3. R.T.Yusupova. Inson va texnika munosabati, uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini. Andijon, 2025-y
4. R.T.Yusupova. Muhandislik ijodiyotining asosiy yo'nalishlari va falsafiy tamoyillari. Andijon, 2024-y